

MILLIY RUH VA IJODKOR SHAXS RUHIYATI UYG'UNLIGI (SHAFOAT RAHMATULLA TERMIZIY SHE'RIYATI MISOLIDA)

Yulduz Xaitova

Termiz davlar universiteti tadqiqotchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11002371>

Annotatsiya. Mazkur maqolada shoir Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodida milliy ruh va ijodkor shaxs ruhiyatining uyg'unligi masalasi tahlilga tortigan. Shoir asarlarida millatning axloqi, irodasi va e'tiqodiga doir qarashlari poetik ifodalanganini ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari she'r, uning inson ruhiyatiga ta'siri xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ruhiyat, pafos, shoir, badiiy asar, obraz, poetik uslub, mahorat, lirika, shaxs, Vatan.

THE HARMONY OF THE NATIONAL SPIRIT AND THE SPIRIT OF THE CREATIVE PERSON (IN THE EXAMPLE OF THE POETRY OF SHAFAT RAHMATULLA TERMIZI)

Abstract. In this article, the poet Shafolat Rahmatulla Termizi's work analyzes the issue of harmony between the national spirit and the psyche of the creative individual. It is noted that the views of the nation's morality, will and faith are poetically expressed in the works of the poet. In addition, the poem and its influence on the human psyche are discussed.

Key words: spirituality, pathos, poet, artistic work, image, poetic style, skill, lyrics, person, Motherland.

ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ДУХА И ДУХА ТВОРЧЕСКОЙ ЧЕЛОВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ ШАФААТА РАХМАТУЛЛЫ ТЕРМИЗИ)

Аннотация. В данной статье творчество поэта Шафоата Рахматуллы Термизи анализируется вопрос гармонии национального духа и психики творческой личности.

Отмечается, что в произведениях поэта поэтически выражены взгляды на нравственность, волю и веру народа. Кроме того, обсуждается стихотворение и его влияние на психику человека.

Ключевые слова: духовность, пафос, поэт, художественное творчество, образ, поэтический стиль, мастерство, лирика, личность, Родина.

Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodida poetik mazmun va milliy ruh uyg'unligi masalasi millatning axloqi, irodasi va e'tiqodiga doir lirik asarlarida poetik ifodalanganini ta'kidlash kerak.

Milliy ruh badiiy asarlarda ma'lum tamoyillar asosida namoyon bo'lishi xususida professor Nurboy Jabborov quyidagicha yozadi: "...ularni quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) millat ruhini mujassam etgan o'ziga xos urf-udumlar, an'analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini; 2) millatning o'z-o'ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi; 3) milliy shaxsiyatlarga xos sobit e'tiqodning poetik suvratlanishi. Birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e'tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi"[1.35]. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tahlili munosabati bilan belgilangan mazkur tamoyillarni Shafolat Rahmatulla Termiziyilar she'riyatida milliy ruhning poetik mazmunda ifodalanishini tadqiq qilish jarayoniga ham tatbiq etish mumkin:

Shoir Shafolat Rahmatulla Termiziy “Bulbul qay gulga oshiq” she’rining umumiy mohiyatida milliy ruh va ijodkor shaxs ruhiyatining uyg’unligini ko’rish mumkin:

Bahor-qiz ko’ylagining etagi so’kildimi,
Undan yashil gilamga marjoni to’kildimi?
Harir ko’ylak kiyishib, sayilga chiqqan ming qiz,
G’uncha lablarin ochib yo barobar kuldimi?... [2.38]

Bahor – barcha tirik jonzoqlar va o’simlik dunyosi uyg’unadigan fasl. Bu misralarda ham o’zbek millatiga xos bo’lgan urf-odatlar, qizlarning zavq-shavq bilan sayilga chiqishi badiiy bo’yoqlarda mahorat bilan tasvirlanadi. Shoir tabiat tasvirini yaratib, nafaqat lirik qahramonning ruhiy holatini aks ettirishga, balki tuyg’ular pardasi ortida ritorik so’roqlar orqali ko’rinmaydigan voqelik elementlarini qo’shishga harakat qiladi.

Vatan haqida yozmagan ijodkorlarni topish mahol. Shafolat Rahmatulla Termiziy asarlarida Vatan obrazi zamirida teran mohiyatni joylay bilishi, milliy ruhni mujassam etish salohiyati bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, Shafolat Rahmatulla Termiziyning “O’zbekiston”, “O’zbekiston o’zing yagona”, “Vatan haqida monolog”, “Vatan hur, asr yangi” mavzudagi she’rlarida kindik qoni to’kilgan vataniga muhabbat, har bir go’shasining o’ziga xosliklarini ta’rifu tavsif etadi. Shoir “O’zbekiston” she’rida quyidagicha yozadi:

Vatan borliq borimsan,
Betimsol diyorimsan,
Mehribonim yorimsan,
Kelinchak O’zbekiston.

Yashna, kuyla, kul yurtim,
G’azalxon bulbul yurtim.
Go’zal yurtim, gul yurtim,
Gulchechak O’zbekiston [3.143].

Ona zamin - Vatanni kelinchakka, gulga o’xshatilishining o’ziyoq shoirning vatanga muhabbati cheksiz ekanligidan dalolatdir.

She’r – talant mahsuli, ko’ngil qa’riga sayohatning borliq aro mavjlanish hodisasi. Olamni ijodkor ko’zi ila idrok etolmaydigan, uning o’quvchilarga noma’lum jihatlarini ko’ra olmaydigan kishi shoir hisoblanmaydi. Faqat o’qib shoir bo’lish qiyin. Shoirlilik – bu qismat. Shoir bo’lmaslikning ilojini topa olmaydiganlar qismati. U hamisha nimadandir norozi, nimadandir hayajonda. Olamni boridan go’zalroq, odamlarni hozirgisidan komilroq ko’rish istagi shoirni doim bezovta qilib keladi.

Har qanday ijodkorning asl qiyofasini uning she’rlaridagi poetik ifodalangan milliy ruh masalasi belgilaydi. Shu ma’noda Shafolat Rahmatulla Termiziy tamomila o’ziga xos, o’tkir nigohli shoirdir. To’g’ri, u ham boshqalar foydalanib yurgan so’zlarni ishlatadi. Lekin u bu so’zlarni kitobdan olmaydi. Kitobdan olingan so’z obrazga yopishmaydi. Shafolat Rahmatulla so’zga ayro bir erkinlik bilan yondashadi. U har qanday asov, g’o’r so’zni ham yuvvosh torttiradi.

So’zni ruhga bo’ysundira oladi. O’zi so’zning emas, shoirona ruh stixiyasining qurshovida yurib, oddiygina so’zlardan faqat Shafolat Rahmatullaga xos tasvir uslubini vujudga keltiradi.

Shafoat Rahmatulla Termiziyning “Arosat odam” dramatik dostoni “Muqaddima”, “Asosiy qism”, “Xotima” qismdan iborat bo‘lib, arosat haqidagi dramatismni hosil qiladi. Undagi “Qorqiz”, “Qora odam”, “Qor odam”, “Shoir” obrazlari orqali hayotning mashaqqatli muammolarini faqatgina ezgulikkina yecha olishi poetik ifodalanadi:

Unda Qorqiz obrazi:

Muhabbat men, muhabbat siz, muhabbat ana,
Shu fursatda qay yurakda qildi tantana.
Suvdan tiniq, guldan nozik yonar muhabbat,
Qo‘sh yurakning qonin ichib qonar muhabbat [4.281].

Muhabbat – bu tirik mavjudodlarning o‘z mashaqqatlarini yengillashtirishga urinishi ong taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Odamzod hamisha o‘ziga qo‘lay yashash usullarini hayotga tadbiq etish yo‘llarini izlaydi. Insoniyat hayotiga kirib kelgan barcha yangiliklar, o‘z imkoniyatlari doirasida olam tartibotlariga qarshilik qilib yashaydi. “Qo‘sh yurakning qonin ichib qonar muhabbat” misralarida muhabbat inkor qilishga urinadi – ong va tashqi olam o‘rtasidagi ziddiyatlar inson hayoti taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday kuchning ortida esa shubhasiz, ushbu olam tartibotlariga e‘tiroz turadi.

Dramatik dostonidagi Qora odam obrazida dunyonong jamiki e‘tirozlari ifodasi bordek:

Qalbingizda bor ekanki g‘amu kadar,
Sizlar qilgan shubha, gumon, xiyonatlar,
Mana, meni bunyod etdi, birodarlar.
Qani ayting, shu davrada o‘tirganlar,
Hammangizning yuragingiz oppoq magar,
Qop-qora bo‘b men bu yerda turarmidim?
Orangizda alvastiday yurarmidim.
Xohlamayman, burda-burda qilib tashlang,
Qaytib oling ko‘zim, qalbim, tilimni, mang![5.281]

“Qalbingizda bor ekanki g‘amu kadar” misrasi talqinidan ta’kidlash joizki, odamzodning ongli ravishdagi e‘tirozlari ikki turli bo‘ladi: 1. O‘z-o‘zini himoya qiluvchi. 2. Hujum qiluvchi.

Aslida har qanday hujum o‘z-o‘zini himoya qilishdir, biroq bundan ruhiy holatda ham, harakat-amallarda ham anchagina farq bo‘ladi, shu bois ularni ikki turga bo‘lib, o‘rganilishi lozim.

Bu ikki turdagi e‘tirozlar barcha jonlilarga birdek tegishli ekani odamzodni tirik mavjudodlar bilan umumlashtiradi va asosning, ya’ni paydo bo‘lishning yagona ekanidan dalolat beradi.

Dostonidagi Qor odam obrazi ham o‘ziga xos tarzda ifodalanga:

Ishqning oppoq armoniman - Qor odamman,
Odamlar bor, demak, men ham bor odamman.
Qalbingizda yashab sizga qaytolmadim,
Muhabbatga zarur edim, aytilmadim.
Afsonalar to‘qidingiz menga doir,
Qismat dedi, taqdir dedi, yozdi shoir [6.281]
Dostonidagi shoir obrazi ham o‘ziga xos tarzda tasvirlangan.
Shoir edim, she’r yozardim baholi kudrat,

Bugun sahna san'atiga yetdimu jur'at,
Bu zotlarni bilganimcha o'ynatib kuydim,
O'ynatdimu, sizlarni ham o'ylatib qo'ydim.
Ishq va vafo, armonmasmi hayotning ta'mi,
Shu lazzatning, ayting, axir talxlari kammi?
Ey men sevgan, qorday oppoq, ulug' odamlar,
Bir tilak shu: oppoq sevib, oppoq yashanglar![7.281]

Odanzodning bu dunyoda ishq va vafo uchun qiladigan har qanday harakat-amallari himoya yoki hujum shaklidagi e'tirozlardir. \\Ishq va vafo, armonmasmi hayotning ta'mi\\ Himoya ilinjidagi e'tirozlar aksariyat iltijoli – rahm shavqat yoki kuch-quvvat so'rash shaklida bo'ladi.

Tatamidagi kurashchi raqibini gilamga yiqitish uchun hujum qiladi va ayni damda uni dast ko'tarib, yerga urish uchun "Yo, olloh" deb hayqirishi o'zi sig'inadigan buyuk qudratdan himoya so'rovchi iltijodir. \\ Ey men sevgan, qorday oppoq, ulug' odamlar, Bir tilak shu: oppoq sevib, oppoq yashanglar! \\ Umuman, himoya istagidagi e'tirozlar har doim Alloh yoki boshqa kuchlarga nola, armonli, tushkun ohangida, ba'zan ko'z yoshli, harakatlarida esa shilliqqurt singari o'zini yig'ib olish shaklida namoyon bo'ladi. Ba'zan esa himoya ilinjidagi e'tirozlar o'tmishni qumsash, kelajakka ishonchsizlikni ham namoyon qiladi.

Bundan tashqari, shoir ijodi turli ramzlarga boyligi, metaforik tafakkurning balandligi, jozibador va shirali tili bilan boshqa zamondosh shoirlardan ajralib turadi. U biror mavzu atrofida fikr yuritganda, hamma o'rgangan, ko'nikkan adabiyot meyorlariga rioya qilmaydi. O'zi tanish bo'lgan she'riy qoliplardan foydalanmaydi. Shoirdagi tasavvur va taxayyul kuchi mavjud adabiy-nazariy qoliplarni chetlab ham o'tishi mumkin. Shuning uchun shoirda turli shakldagi, har xil bandga ega she'rlarni uchratamiz. Bu she'rlarda hayot hech qanday emotsional bo'yoqlarsiz, ortiqcha jimjima va bezaklarsiz tasvirlanadi, bir qarashda qo'pol hamda jaydariga o'xshash satrlar qalbimizga o'rinishib oladi. Shoir, asar boshlanmasini an'anaviy yo'lda boshlab, fikrlarning tadrijiy dinamikasi asta kuchayib, satirik pafos yuzaga keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, Shafolat Rahmatulla Termiziy asarlarida peyzaj tasviri qahramonlarning ichki dunyosini tasvirlash, hayotning muayyan daqiqalarini aks ettirish uchun yordamchi vosita vazifasini bajarganini lirik asarlari orqali guvohi bo'ldik. Shoir asarlarida milliy ruhni mujassam etish har bir tasvir vositalar orqali tasvirlab bergan.

REFERENCES

1. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. Сайланма. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 320.
2. Жабборов Н. "Ўткан кунлар"да миллий рух ифодаси. //Филология масалалари, 2020, 2-сон. – Б. 35.
3. Erikson, E. Psychosocial Identity / E. Erikson // A Way of Looking at Things. Selected Papers / ed. By S. Schlein. – N. Y., 1995.
4. Шнейдер Л.Б. Профессиональная идентичность: Структура, генезис и условия становления: дис. ... канд. психол. наук. – Москва, 2001. – 321 с.
5. У. Саидов. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. –Т.: Академия, 2004. –Б.10.

6. Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. – Москва: Художественная литература, 1986. – С. 71.
7. Турдимов Ш. Лирик қўшиқларда рамз // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1982. – № 3. – Б.16.
8. Sul-tonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (94), 350-353. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>
9. Yulduz Hayitova Some strkes to the poem of the Shodmonkul Salom. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102), 1033-1036.
10. Raimova S.(2019) Artistic interpretation of religious and educational issues of uzbek poetry in the period of inde pendence.(As an example works of A.Aripov,A.Mahkam and A.Uktam) //ISJ Theoretical and applied sciences. – № 11 (71). – P. 42-44. Impact Factor: 6.6.